

MEHMONXONA XO'JALIGIDA INVESTITSIYAGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich

IPU "Iqtisodiyot" kafedrası dotsenti

E-mail: jasurberdiyev6834@gmail.com

ORCID:0009-0006-0111-4300

Annotatsiya

Ushbu maqolada mintaqa mehmonxona xo'jaligida investitsiya samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarning o'ziga xos bo'lgan asosiy xususiyatlarini asoslab berish, uning iqtisodiy samaradorligini aniqlash va mehmonxona xo'jaliklarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: mintaq, mehmonxona xo'jaliklari, investitsiya, ta'sir etuvchi omillar, mehmondorchilik klasteri, mehmonxona xo'jaliklarida samaradorlik, moddiy-texnika asoslari, investitsiya samaradorligi

Аннотация

В статье обоснованы основные характеристики факторов, влияющих на эффективность инвестиций в гостиничный бизнес региона, определена его экономическая эффективность, а также раскрыты организационно-экономические механизмы развития гостиничного хозяйства.

Ключевые слова: регион, гостиничное хозяйство, инвестиции, факторы влияния, кластер гостеприимства, эффективность гостиничного хозяйства, материально-техническая база, эффективность инвестиций.

Abstract

In this article, the main characteristics of the factors affecting investment efficiency in the hotel industry of the region are substantiated, its economic efficiency is determined, and the organizational and economic mechanisms of hotel industry development are revealed.

Keywords: region, hotel economy, investment, influencing factors, hospitality cluster, efficiency in hotel economy, material and technical basis, investment efficiency

KIRISH

Turizm salohiyati imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bular turizm sohasini rivojlantirishni ta'minlash, turistik xizmatlar samaradorligi va sifatini oshirish, mehmonxona xo'jaliklarida ko'rsatiladigan xizmatlarning xalqaro andozalarga mos turlarini takomillashtirish va diversifikatsiya qilish, iqtisodiyotining o'sishida turizm ulushini va mehmonxona xizmatlari sifatini muntazam oshirib borish masalalariga qaratilgan. Ushbu yo'nalishlar mehmonxona xo'jaliklari samaradorligini oshirishni, ularni baholash va tahlil qilish yo'llarini takomillashtirishga qaratilgan kompleks tadqiqotlar olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Turizm infratuzilmasining asosini mehmonxona xo'jaligi tashkil qiladi. Bugungi kunda turizmni mutanosib rivojlantirish mamlakatimizning barcha hududlarida zamonaviy mehmonxonalarni barpo etishni taqozo qiladi. Ammo mehmonxonalarning turlarini o'zimizga va hududlar ehtiyojiga mos ravishda joylashtirish, ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar samaradorligi va sifatini baholash va tahlil qilish masalalari yetarli darajada tadqiq qilinmagan va iqtisodiy adabiyotlarda kam yoritilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mehmonxona xo'jaligida investitsiya samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar masalalari ko'plab xorijlik olimlarning, xususan, mazkur muammoning ilmiy-nazariy va metodologik hamda amaliy muammolari xorijlik olimlardan F.Kotler, Dj.Bouen, Dj.Meykens, D.S.Ushakov, V.G.Fedsov va boshqalar¹ tomonidan tadqiq qilingan.

Mamlakatimizda turizm sohasi, uning tarkibiy qismi bo'lgan mehmonxona xo'jaligi xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirish muammolarini tadqiq qilish bilan N.Tuxliev, I.S.Tuxliev, M.K.Pardaev va A.N.Xalikulov kabi iqtisodchi olimlar shug'ullanmoqdalar².

Ushbu iqtisodchi olimlar ilmiy izlanishlarida turizm sohasi va mehmonxona xo'jaliklarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, ularning mamlakatimiz va hududlardagi o'ziga xos xususiyatlari, sohaga innovatsiyalarni joriy qilish va samaradorligini oshirish muammolari o'z ifodasini topgan. Mazkur tadqiqotlarda mehmonxona xo'jaligi faoliyatiga oid masalalar turizmning infratuzilmasi sifatida qarab chiqilgan. Sohada xizmatlar sifati va samaradorligini oshirish masalalari, ularni baholash va tahlil qilish yo'llari alohida tadqiqot obyekti sifatida kam o'rganilgan. Aynan shu holat mazkur dissertatsiya ishining maqsad va vazifalarini belgilashga asos bo'lib xizmat qildi.

METODOLOGIYA

Mintaqada mehmonxona xo'jaligida investitsiya samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarning o'ziga xos bo'lgan asosiy xususiyatlarini asoslab berish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish doir tahlilida induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil etish, jadval va grafiklar usullaridan foydalanildi va taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan sanaladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mehmonxona xo'jaligida samaradorlikni ifodalash uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish lozim, chunki ushbu kategoriya o'ta murakkab. Ularni ma'lum tizimga keltirish boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim rol o'ynaydi. Shu tufayli mehmonxona xo'jaligida samaradorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlarni bir qator

¹Котлер Ф., Боуэн Дж., Мейкенс Дж. Маркетинг. Гостеприимство и туризм. / Пер. с англ. – М.: ЮНИТИ, 1998., Уокер Дж. Введение в гостеприимство. Учеб. Пособие / Пер. с англ. – М.: ЮНИТИ, 1999., Ходорков Л.Ф. Мировое гостиничное хозяйство. – М.: 1991., Волков Ю.Ф. Гостиничный и туристический бизнес. – Ростов н/Д: Феникс, 2009. – С. 637.

²Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Экологический туризм: сущность, тенденция и стратегия развития. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси». –Т.: – 2006. – С. 415, Пардаев М.Қ. ва бошқалар. Экологик туризм асослари. – Т.: “Наврўз” нашриёти, 2015. – 96 б. Пардаев М.Қ., Атабоев Р. Туризм асослари. – Самарқанд: СамИСИ – 2006. – 78 б. Ҳамидов О.Ҳ. Ўзбекистонда экологик туризмни ривожлантиришни бошқариш механизмини такомиллаштириш. Докт. дисс.автореф. – Самарқанд, 2017. – 68 б.

belgilari bo'yicha tasniflash mumkin. Biz ushbu ko'rsatkichlarni iqtisodiy mazmuni bo'yicha quyidagi guruhlariga bo'lishni tavsiya qilamiz:

- mulkdor nuqtai nazaridan, uning qo'ygan investitsiyalari bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- firma nuqtai nazaridan, moddiy resurslardan samarali foydalanish bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- mehnat jamoasi nuqtai nazaridan, mehnat resurslari samaradorligi bilan bog'liq ko'rsatkichlar.

Mazkur tadqiqot jarayonida ushbu guruh ko'rsatkichlardan biri bo'lgan, mulkdor nuqtai nazaridan, uning qo'ygan investitsiyalari bilan bog'liq ko'rsatkichlar tizimiga to'xtaldik. Chunki bozor munosabatlari sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi subyekt xususiy mulk evaziga shakllanadi va unga qo'yilgan investitsiyalarning qaytimi mulkdor uchun katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Ushbu guruh ko'rsatkichlardan biri investitsiyaning umumiy samaradorligi, ya'ni bir so'm qo'yilgan investitsiyaga to'g'ri keladigan umumiy tushum bo'lib hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkichni quyidagi formula bilan ifodalashni tavsiya qilamiz:

$$M_{xc} = \frac{Q}{U};$$

Bunda: M_{xs} - bir so'm qo'yilgan investitsiyaga to'g'ri keladigan umumiy tushum;
 Q – mehmonxona xo'jaligi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmi;
 U – mulkdor tomonidan qo'yilgan investitsiyaning umumiy hajmi.

Tadqiqotlarimiz ko'rsatdiki, ushbu ko'rsatkichga bir qancha omillar ta'sir qilar ekan. Bularning bir biri bilan bog'liqligini aniqlash uchun quyidagi formulani tavsiya qilamiz:

$$M_{xc} = \frac{Q}{U} = \frac{Q}{Mor} * \frac{Mor}{Gu} * \frac{Gu}{P} * \frac{P}{U}$$

Bunda: Mor – hisobot davrida xizmat qilingan (mehmonxonaga joylashtirilgan) mehmonlarning o'rtacha soni;

Gu – mehmonxonada umumiy joylar soni;

P – mehmonxonada band bo'lgan xodimlarning o'rtacha soni.

Ma'lumki, ushbu ko'rsatkichlar mutlaq ko'rsatkichlar bo'lib hisoblanadi. Ularni bir-biri bilan solishtirilish natijasida nisbiy ko'rsatkichlar vujudga keldi. Ushbu ko'rsatkichlar aynan biz tahlil qilayotgan ko'rsatkichlardir. Ushbu formulaga matematik modelning qisqartirish usulidan foydalanib, barcha ko'rsatkichlarni qisqartirib olamiz. Buning uchun quyidagi amallar bajariladi.

Bunda: M_{xc} ni S , deb belgilab olamiz.

$\frac{Q}{Mor}$ ko'rsatkichini W , deb belgilab oldik, ya'ni ($\frac{Q}{Mor} = W$);

$\frac{Mor}{Gu}$ kўрсаткичини B , деб белгилашни тавсия қилдик, яъни ($\frac{Mor}{Gu} = B$)

$\frac{Gu}{P}$ ko'rsatkichni Z, deb belgilash lozim, degan xulosaga keldik, ya'ni ($\frac{Gu}{P}=Z$);
 $\frac{P}{U}$ ko'rsatkichni T, deb belgilab oldik, ya'ni ($\frac{P}{U}=T$). U holda yuqoridagi formulani qisqartirgan holda quyidagicha ifodalash mumkin bo'ladi.

$$S = W * B * Z * T,$$

Bunda: S - mehmonxona xo'jaligi samaradorligi, ya'ni bir so'm qo'yilgan investitsiyaga to'g'ri keladigan umumiy tushum bo'lib hisoblanadi;

W- 1 ta mehmonga to'g'ri keladigan o'rtacha tushum;

B – mehmonxona o'rinlarining bandlik darajasi;

Z – 1 ta xodimga to'g'ri keladigan umumiy joylar soni;

T – investitsiyaning xodimlar bilan ta'minlanganligi.

Bundan ko'rinib turibdiki, mehmonxona xo'jaligining samaradorlik ko'rsatkichiga to'rtta omil ta'sir qiladi. Ushbu omillarning natija ko'rsatkichi o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun iqtisodiy tahlilning bir qancha usullardan foydalanish mumkin. Biz ular ichida juda ko'p qo'llaniladigan iqtisodiy tahlilning an'anaviy usullardan biri zanjirli almashtirish usulidan foydalanishni tavsiya qilamiz.

1-jadval

“Sayohat” nomli mehmonxonaga qo'yilgan investitsiyaning umumiy samaradorligini va unga ta'sir etuvchi omillar hajmini aniqlash hisob-kitobi¹

T/r	Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda 2022	Hisobot Yilida 2023	Farqi (+,-)	O'zgarish sur'ati, foiz
Mehmonxona xizmatlari bilan bog'liq hajm ko'rsatkichlari					
1.	Mehmonxona xo'jaligi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmi, mln.so'm	350	450	100	128,5
2.	Mulkdor tomonidan qo'yilgan investitsiyaning umumiy hajmi ² , mln. so'm.	13000	13000	0	100
3.	Hisobot davrida xizmat qilingan (mehmonxonaga joylashtirilgan) mehmonlarning o'rtacha soni, kishi	1400	2000	600	142,8
4.	Mehmonxonada umumiy joylar soni, ta	66	66	0	100
5.	Mehmonxonada band bo'lgan xodimlarning o'rtacha soni, kishi.	6	7	1	116,6
6.	Bir yilda mehmonlarni qabul qilish quvvati, kishi (4q*360 kun)	23760	23760	0	100
7.	1 ta mehmonga to'g'ri keladigan o'rtacha tushum, ming so'm. (1q:3q)	250	225	25	90
8.	Mehmonxonada 1 ta o'ringa to'g'ri keladigan mehmonlar soni, kishi (3q:4q)	21	30	9	142,8
9.	1 ta xodimga to'g'ri keladigan umumiy joylar soni, ta (4q:5q)	11	9	2	81,8
10.	1,0 mlrd. so'm investitsiyaning xodimlar bilan ta'minlanganligi, kishi (5q:2q).	4,6	5,3	7	115,2
11.	Mehmonxona xo'jaligida investitsiya samaradorligi, ya'ni bir so'm qo'yilgan investitsiyaga to'g'ri keladigan umumiy tushum, ming so'm (1q:2q)	0,02	0,03	0,01	150

¹ Mazkur jadval “Sayohat” nomli mehmonxonaning (nomi o'zgartirilib berilmoqda) ikki yillik ma'lumotlari asosida tuzildi.

² Investitsiyalarning qiymatiga mehmonxonaga qo'yilgan investitsiyaning dastlabki qiymati va keyingi ta'mirlash bilan bog'liq xarajatlarning ham qo'shib borishi inobatga olindi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, mehmonxona xo'jaligida investitsiyaning umumiy samaradorligi, ya'ni bir so'm qo'yilgan investitsiyaga to'g'ri keladigan umumiy tushum hisobot yilida 42,3 mln. so'mga yoki 104,1 foizga oshgan. Ushbu ko'rsatkichga ta'sir etuvchi omillar hisob-kitob qilinganda shuni ko'rish mumkinki, ushbu omillarning ikkitasida o'sish ro'y bergan bo'lsa (mehmonxonada 1 ta o'ringa to'g'ri keladigan mehmonlar soni 106,3 foiz, 1,0 mlrd. so'm investitsiyaning xodimlar bilan ta'minlanganligida esa, 101,2 foiz), ikkita omilda kamayish ro'y bo'lgan (1 ta mehmonga to'g'ri keladigan o'rtacha tushumning o'zgarishi 99,1 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 1 ta xodimga to'g'ri keladigan umumiy joylar soni 97,4 foizga teng bo'lgan). Mazkur holat natija ko'rsatkichiga ta'sir qilmasdan qolmaydi. Shu tufayli ushbu omillarning investitsiyaning umumiy samaradorligiga ta'sirini hisoblash lozim bo'ladi. Chunki investitsiyaning samaradorligini to'liq ta'minlashga to'g'ri keladi. Zero, qo'yilgan mablag' mulkdorga ham, tadbirkorga ham, unda band bo'lgan xodimlarga ham manfaat keltirishi lozim. Shu jihatdan mazkur ko'rsatkichni oshirish uchun tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish lozim bo'ladi. Buning uchun quyidagi hisob-kitobni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir (1-jadval).

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki, natija ko'rsatkichi bo'lgan mehmonxona xo'jaligida investitsiya samaradorligi, ya'ni bir so'm qo'yilgan investitsiyaga to'g'ri keladigan umumiy tushum hisobot davrida o'tgan yilga nisbatan 0,03 ming so'mga oshgan. Ushbu o'zgarishga yuqorida ko'rganimizdek, to'rtta omil ta'sir qilgan. Ularning ta'siri quyidagicha bo'lgan.

1. Hisobot davrida mehmonxona xo'jaligida investitsiya samaradorligi, ya'ni bir so'm qo'yilgan investitsiyaga to'g'ri keladigan umumiy tushumning o'zgarishiga birinchi omilning, ya'ni 1 ta mehmonga to'g'ri keladigan o'rtacha tushumning 25 ming so'mga kamayganligi, natija ko'rsatkichini 4,8 ming so'mga kamaytirgan.

2. Natija ko'rsatkichi bo'lgan mehmonxona xo'jaligida investitsiya samaradorligi, ya'ni bir so'm qo'yilgan investitsiyaga to'g'ri keladigan umumiy tushumning o'zgarishiga ikkinchi omil bo'lgan mehmonxonada 1 ta o'ringa to'g'ri keladigan mehmonlar sonining 9 kishiga o'zgarishi investitsiya samaradorligini 168,4 ming so'mga oshirgan.

3. Mehmonxona xo'jaligida investitsiya samaradorligi, ya'ni bir so'm qo'yilgan investitsiyaga to'g'ri keladigan umumiy tushumning o'zgarishiga uchinchi omil – 1 ta xodimga to'g'ri keladigan umumiy joylar sonining 2 taga o'zgarishi (kamayishi) natija ko'rsatkichining ham 130,2 ming so'mga kamayishiga olib kelgan.

4. Natija ko'rsatkichi – mehmonxona xo'jaligida investitsiya samaradorligi, ya'ni bir so'm qo'yilgan investitsiyaga to'g'ri keladigan umumiy tushumning o'zgarishiga to'rtinchi omilning – 1,0 mlrd. so'm investitsiyaning xodimlar bilan ta'minlanganlik darajasining ta'sirini aniqlash uchun natija ko'rsatkichining haqiqiy miqdoridan, uning uchinchi omil o'zgarishi bilan qayta hisoblangan miqdorini ayirish kifoya.

Ko'rinib turibdiki, natija ko'rsatkichining o'sishi tahlil qilinayotgan to'rtta omil evaziga oshgan. Ammo ularning ikkitasi ijobiy ta'sir qilgan bo'lsa, ikkitasi salbiy ta'sir qilgan. Agarda yuqorida aniqlangan ikkita omil hech bo'lmaganda o'tgan yilgi

darajada bo'lib, salbiy ta'sir qilmaganda investitsiyaning samaradorligi yana 39,8 ming so'mga (9,6+30,2) oshgan bo'lar edi.

Bunday omilli tahlil xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini yaxshilashga, iqtisodiyotimizni yuksaltirish evaziga insonlar hayotini sifat darajasiga ko'tarishga imkoniyat yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mehmonxona xo'jaligida samaradorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlardan investitsiya samaradorligining tahlili yetarli darajada tadqiq qilinmaganligini inobatga olib, ushbu ko'rsatkichga ta'sir qiluvchi omillar aniqlandi va ularning ta'sirini hisoblash yo'llari ko'rsatib berildi. Tadqiqotlarimiz ko'rsatdiki, mehmonxona xo'jaligi samaradorligi, ya'ni bir so'm qo'yilgan investitsiyaga to'g'ri keladigan umumiy tushumga 1 ta mehmonga to'g'ri keladigan o'rtacha tushum; mehmonxona o'rinlarining bandlik darajasi; 1 ta xodimga to'g'ri keladigan umumiy joylar soni; investitsiyaning xodimlar bilan ta'minlanganligi kabi omillar ta'sir qilar ekan. Natija o'zgarishiga ushbu omillarning ta'sirini hisoblash yo'llari birinchi bor ko'rsatib berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdukarimov I.T., Pardaev M.Q., Isroilov B.I. Korxonaning iqtisodiy salohiyati tahlili. Monografiya. – T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 2003. – 256 bet.

2. Pardaev M.Q., Abdukarimov I.T., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. – T.: “Mehnat”, 20004. – 488 bet.

3. Savdo iqtisodiyoti muammolari. O'quv qo'llanma. /prof. M.Q. Pardaevning umumiy tahriri ostida. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2016. – 504 bet. va h. k.

4. Ergashev T. K., Berdiev J. Q. Theoretical and practical aspects of using modern management methods in the hotel industry //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 4. – С. 849-859.

5. Бердиев, Ж. (2023). Опыт зарубежных стран в развитии малого бизнеса и частного предпринимательства. Евразийский журнал академических исследований, 3 (2 Часть 3), 87-92.

6. Berdiyev, J. (2022). Mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish imkoniyatlari. Евразийский журнал академических исследований, 2(11), 832-835.